

MUSOBAQA FAOLIYATIDAGI MURAKKAB VAZIYATLARGA O‘SMIR FUTBOLCHILARNING CHIDAMLILIGI VA MUVAFFAQIYATGA YUNALGANLIK MOTIVINI SHAKLLANTIRISH KO‘NIKMASI

A.U.Xaitov – *psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Renessans ta‘lim universiteti*

НАВЫК ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВА УСПЕХА И ВЫНОСИМОСТИ ПОДРОСТКОВ К СЛОЖНЫМ СИТУАЦИЯМ В СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

A.Y.Xaitov – *доктор философии по психологическим наукам, доцент
Университет образования Ренессанса*

THE SKILL OF FORMING THE ENDURANCE OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS TO COMPLEX SITUATIONS OF COMPETITION ACTIVITIES AND THE MOTIVE OF SUCCESS

A.U.Khaitov – *doctor of philosophy in psychological sciences, associate professor
Renaissance education University*

Tayanch so‘zlar: o‘smir, futbol, musobaqa, murakkab vaziyat, iroda, qat‘iyat, matonat, maqsadga intiluvchanlik, bardoshlilik, motiv, muvaffaqiyatga erishish, vatanparvarlik.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘smir futbolchilarni irodaviy tayyorlash jarayonida motivatsiyaning ahamiyati o‘rganilgan. Sportchilar faoliyat motivatsiyasini barqaror saqlash uchun irodaviy sifatlarni rivojlantirish kerakligi aniqlangan. O‘smir futbolchilar faoliyatida yuqori natijaga erishish uchun irodali bo‘lish bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik motivlarini rivojlantirish kerak ekanligi isbotlangan.

Ключевые слова: подросток, футбол, соревнование, трудная ситуация, воля, решительность, упорство, стремление к цели, толерантность, мотив, достижение, патриотизм.

Резюме. В данной статье рассматривается значение мотивации в процессе волевой подготовки футболистов-подростков. Определено, что спортсменам необходимо развивать силу воли для поддержания стабильной мотивации. Доказано, что для достижения высокого результата в карьере футболистов-подростков необходимо наряду с желанием развивать мотивацию успеха и патриотизм.

Key words: teenager, football, competition, difficult situation, will, determination, perseverance, pursuit of a goal, tolerance, motive, achievement, patriotism.

Summary. This article examines the importance of motivation in the process of volitional training of teenage football players. It has been determined that athletes need to develop willpower to maintain stable motivation. It has been proven that in order to achieve high results in the careers of teenage football players, it is necessary, along with the desire, to develop motivation for success and patriotism.

Kirish. Yurtimizda sportga qaratilayotgan yuqori darajali e‘tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida sport bilan shug‘ullanayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Sportga qaratilayotgan e‘tiborlar natijasida jahon maydonlarida yurtimiz sportchilari yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelishmoqda. Bu borada yurtimiz futbolchilar 2026-yilda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatiga ilk bor yo‘llanmani qo‘lga kiritganligini aytib o‘tish lozim. Barcha faoliyat turlari kabi sport faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ham o‘smir shaxsiga o‘ziga xos bo‘lgan omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘smirlarga sport turini tanlashda ko‘p holatlarda ijtimoiy va psixologik omillar ta‘sirida motivatsiya yuzaga keladi [1]. Futbol sportini tanlashda esa o‘smirlarga asosan jahonning taniqli futbolchilarining faoliyatini kuzatish natijasida kuchli motivatsiya shakllanishi sir emas [7]. Shunga qaramay sport bilan shug‘ullangan barcha yoshlar ham professional sport turiga o‘tib bormasligi va havaskor sportchi sifatida faoliyat olib borishi kuzatiladi. Shunga asosan, sportning professional, havaskor va ommaviy sport shakllarining keltirish mumkin [5]. Professional sportda yuqori natijaga erishish asosiy motiv bo‘lsa, havaskor sportda kuchli bo‘lish, boshqalardan ajralib turish kabi motiv ustunlik qiladi [8]. Ommaviy sportda esa ko‘proq salomatlik uchun harakat qilish ifodalanadi. Shu bilan birga sportda mukofot olish, jamoa sha‘ni uchun kurashish motivi ham asosiy o‘rinda turadi [4].

Muhokama. Futbol sportini tanlagan o‘smirlarning o‘z faoliyatida yuqori natijalarga erishishi professional sport darajasiga o‘tib borishiga bog‘liq bo‘lib, o‘smirlik davridan futbolchilarning irodasi va motivatsiyasini rivojlantirishni talab qiladi [3]. A.V.Shaboltas sportda muvaffaqiyatga erishish, fuqarolik-vatanparvarlik, sport bilish kabi asosiy motivlarini ajratib bergan. Ushbu motivlarning yuqori darajada ifodalanishi irodaviy sifatlari shakllanganligiga asoslanadi va o‘smir futbolchilarning kelajak faoliyatida yuqori natijalarga erishishga zamin bo‘ladi [6]. Irodaviy sifat turli vaziyatlarda ham yuqori natijaga erishish motivlarining izdan chiqmasligini ta‘minlaydi [2]. O‘smir futbolchilarda o‘tkazilgan tadqiqotda 511 nafar (tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar) ishtirokchi qatnashdi.

Natijalar. O‘smir futbolchilarning faoliyat motivatsiyasini o‘rganish maqsadida olib borilgan diagnostika va psixokorreksiya amaliyoti natijasida TGda sportda muvaffaqiyatga erishish motivi TO m – 11,5 (42,4%) dan TK m – 25,5 (94,5%) gacha, fuqarolik-vatanparvarlik motivi TO m – 11,9 (44,1%) dan TK m – 25,3 (93,7%) gacha ko‘tarigan, NGda TO va TK natijalar o‘zgarishsiz qolgan. Sport faoliyat motivlari o‘smir futbolchilarning irodaviy sifatlari bilan bog‘liqligi korrelyasion tahlil asosida o‘rganildi. (1-jadval)

1-jadval. O'smir futbolchilarning sport faoliyat motivi va irodaviy sifatleri bog'liqligi N=276 (TG)

Sport faoliyat motivlari	Irodaviy sifatlar				
	Maqsadga intiluvchanlik	Qat'iyat, matonat	Jur'at, jasorat	Mustaqillik, tashabbuskorlik	Sabotlilik, o'zini tuta bilish
Muvaffaqiyatga erishish	0,86**	0,83**	0,74**	0,71**	0,78**
Sport bilish	0,71**	0,76**	0,69**	0,72**	0,74**
Kasbiy faoliyat	0,73**	0,76**	0,65**	0,59**	0,71**
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,91**	0,88**	0,81**	0,83**	0,78**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$;

Korrelyatsion tahlil natijasida sportda muvaffaqiyatga erishish motivi maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat, matonat irodaviy sifatleri bilan, fuqarolik-vatanparvarlik motivi esa maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat, matonat, mustaqillik, tashabbuskorlik irodaviy sifatleri bilan kuchli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga sport bilish va kasbiy faoliyat motivlari irodaviy sifatlar bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ifodalandi. Musobaqalaridan tashqari qiyin vaziyatlar va to'siqlar sportchida emotsional beqarorlik, xavotir, ishonchsizlik yuzaga keltirib faoliyat motivatsiyasiga ta'sir etadi. Shu sababli samaradorlik ko'rsatgichi asosida to'siqlar va qiyin vaziyatlarga chidamlilik, maqsadga olg'a intilish irodaviy sifati hamda yuqori natijaga erishish motivatsiyasi shakllangan holatdagi ko'rsatgichlarning korrelyatsion bog'liqligi aniqlandi.

O'smir futbolchilarning musobaqa jarayonida murakkab va irodasizlik namoyon bo'lishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar mavjud bo'lib, tadqiqotda bunday vaziyatlarning 14 ta holati ajratilgan hamda o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik etishmasligi (45%), birinchi gol o'tkazgandan keyin o'ziga kelolmaslik (41%), raqibning bosimiga bardosh berolmaslik (32%) kabi holatlar asosiy murakkab vaziyatlar sifatida namoyon bo'lgan. Musobaqa jarayoniga xos bunday murakkab vaziyatlarni yengib o'tishda sportchiga maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat va matonat, sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish, jur'at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarining ahamiyati yuqori ekanligi aniqlangan.

O'smir futbolchilarning musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar mosligiga ko'ra to'rtta asosiy faktorlarga birlashtirilgan. Birinchi faktorga "o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik", "raqibning bosimiga bardoshlilik", "jarohat olgan holatda sabr bilan o'yinni davom ettirish", "g'alabaga intilish (maqsadga erishish) uchun jamoaviy qat'iy kurashish" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar; Ikkinchi faktorga "birinchi gol o'tkazgandan keyin o'ziga kelish", "birinchi gol urgandan keyin o'yinni holatini saqlash", "penaltilar seriyasidagi hayajon" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar; Uchinchi faktorga "noqulay raqibdan xavotir", "hujumda shoshmashosharlik taktikaga ta'siri", "kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsatish"

bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar; To'rtinchi faktorga "raqib yoki o'z jamoadoshlari bilan nizoga kirishish", "o'yin qoidasini buzish", "hakam qaroriga keskin qarshi chiqish", "haqoratli harakatlar qilish" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar joylashgan. O'smir futbolchilarning sport faoliyati motivi musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar kiritilgan faktorlar bilan korrelyatsion tahlil qilindi. (2-jadval)

2-jadval. Sport faoliyat motivatsiyasi hamda musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar o'zaro bog'liqligi

Sport faoliyat motivlari	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor
Emotsional zavqlanish	-0,09	0,12	0,21**	0,63**
Ijtimoiy o'zini-o'zi tasdiqlash	0,51**	0,43**	0,39**	0,57**
Jismoniy o'zini-o'zi tasdiqlash	0,47**	0,52**	0,41**	0,43**
Ijtimoiy-emotsional	0,13	-0,11	0,34**	0,57**
Ijtimoiy-axloqiy	0,64**	0,58**	0,46**	0,32**
Muvaffaqiyatga erishish	0,79**	0,74**	0,71**	-0,12
Sport bilish	0,57**	0,52**	0,49**	0,08
Ratsional-rekreativ	0,23*	0,47**	0,12	0,13
Kasbiy faoliyat	0,41**	0,59**	0,55**	0,15*
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,81**	0,75**	0,73**	-0,07

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$;

O'smir futbolchilarning sport faoliyati motivlari hamda ularning musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar omillarining korrelyatsion bog'liqlik tahliliga asosan, sport bilan shug'ullanishda emotsional zavqlanish motivi to'rtinchi faktorlar bilan o'rta darajali bog'lanishga ega. Emotsional zavqlanishni asosan o'yin jarayonidan norozi holatda bo'lgan futbolchilar tomonidan jarayonni izdan chiqazishga harakat qilish boshqa futbolchilar yoki hakam bilan nizoga kirish, o'zining salbiy hissoyotini ifodalash uchun nomuvofiq harakatlar qilishda ifodalanadi.

Sportda muvaffaqiyatga erishish hamda fuqarolik-vatanparvarlik motivlari dastlabki uchta faktor bilan yuqori bog'liqlikka ega ekanligi ifodalangan. Musobaqa jarayonida o'smir futbolchilarning asosiy maqsadi muvaffaqiyatga erishish hamda vatanparvarlik ko'rsatish, o'z yurtining obro'si uchun kurashish bo'lgan holatda o'yin davomida raqibning bosimiga bardosh berishga, g'alabaga intilish uchun jamoaviy qat'iy kurashishga, jarohat olgan holatda ham sabr bilan o'yinni davom ettirishga, o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik ko'rsatish uchun harakat futbolchilar birinchi gol urgandan keyin o'yinni tashlab qo'ymaydi, birinchi gol o'tkazgandan keyin tezda o'ziga kelib oladi, penaltilar seriyasida hayajonga berilmaydi. Bundan tashqari ular noqulay raqibdan xavotirlanmaydi, hujumda shoshmashosharlik oqibatida taktikani buzilishiga yo'l qo'ymaydi, kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsatadi.

Sportchilarda psixik barqarorlikning ta'minlanmaganligi musobaqa motivlarining buzilishiga

oliob keladi. Shu sababli psixokorreksiya amaliyotida TG ishtirokchilarining psixik barqarorligini ta'minlash amaliyoti tashkil etildi. TGda olib borilgan psixokorreksiya amaliyoti samaradorligi natijalariga asosan ishtirokchilarning psixik barqarorlik komponentlari bo'lgan musobaqada emotsional barqarorlik - 14,6 (90,9%), sportda o'zini boshqarish - 14,6 (91,1%), musobaqa motivatsiyasi - 4,3 (89,2%), stabillik-to'ziqlarga bardoshlilik - 15,0 (93,4%), stress barqarorlik - 9,4 (29,3%) shkalalari o'rtacha ko'rsatgichi ko'tarilishiga erishildi. Psixik barqarorlik komponentlarining sport faoliyati motivlari bilan aloqadorlik darajasini korrelyatsion tahlil orqali aniqlandi. (3-jadval)

3-jadval. Sport faoliyat motivatsiyasi hamda psixik barqarorlik komponentlarining o'zaro bog'liqligi

Sport faoliyat motivlari	Psixik barqarorlik komponentlari				
	emotsional barqarorlik	o'zini boshqarish	musobaqa motivatsiyasi	stabillik-bardoshlilik	Stress barqaror
Emotsional zavqlanish	0,12	-0,06	0,16*	-0,09	0,11
Ijtimoiy o'zini-o'zi tasdiqlash	0,65**	0,54**	0,27**	0,45**	0,31**
Jismoniy o'zini-o'zi tasdiqlash	0,58**	0,62**	0,45**	0,53**	0,48**
Ijtimoiy-emotsional	0,57**	0,31**	0,43**	0,25**	0,31**
Ijtimoiy-axloqiy	0,63**	0,59**	0,72**	0,68**	0,64**
Muvaffaqiyatga erishish	0,81**	0,70**	0,83**	0,74**	0,73**
Sport bilish	0,43**	0,51**	0,21**	0,12	0,14**
Ratsional-rekreativ	0,56**	0,48**	0,31**	0,61**	0,51**
Kasbiy faoliyat	0,39**	0,32**	0,27**	0,53**	0,24**
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,75**	0,71**	0,84**	0,77**	0,72**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$;

O'smir futbolchilarning sport faoliyati motivlari hamda ularning musobaqa jarayonidagi psixik barqarorlik komponentlarining korrelyatsion bog'liqlik tahliliga asosan, sportda muvaffaqiyatga erishish hamda fuqarolik-vatanparvarlik motivlari emotsional barqarorlik, o'zini boshqarish, musobaqa motivatsiyasi, stabillik-bardoshlilik, stress barqaror komponentlari bilan yuqori bog'liqlikka ega ekanligi aniqlangan. O'smir futbolchilarning musobaqa jarayonida g'alabaga qozonishi va muvaffaqiyatga erishishi hamda vatanparvarlik ruhini ifodalashi uchun musobaqa jarayonida emotsional barqarorlik va stress barqarorlikka erishishi, o'yin davomida o'zini boshqara olishi, qiyin vaziyatlarda o'z holatini saqlashi va bardoshli bo'lishi, musobaqa motivatsiyasi yuqori bo'lishi lozim ekanligini anglatadi.

Ijtimoiy o'zini-o'zi tasdiqlash motivi emotsional barqarorlik komponenti bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lib, sportchi ijtimoiy muhitda o'zini tasdiqlashi, o'z o'rni va qadriga ega bo'lishi uchun o'zining emotsional barqarorligini saqlashi lozim. Jismoniy o'zini-o'zi tasdiqlash motivi o'zini boshqarish komponenti bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lib, jismoniy kuch va imkoniyatga ega bo'lish uchun sportchi o'zini boshqara olishi kerakligini anglatadi. Ijtimoiy-axloqiy motiv musobaqa motivatsiyasi komponenti bilan yuqori, emotsional barqarorlik, stabillik-bardoshlilik, stress barqarorlik komponentlari bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lib, futbolchilarning jamoa a'zolari sha'ni uchun kurashishda musobaqa motivatsiyasi yuqori bo'lishi, shu bilan birga emotsional barqaror, stress barqarorlik va murakkab vaziyatlarda stabil, bardoshlilikni saqlashi lozim.

Xulosa. O'smir futbolchilarni irodaviy tayyorlash jarayonida sportchilarning motivatsiyasini o'rganish samarali natija beradi. O'smir futbolchilarning musobaqa jarayonida yuqori natijaga erishishi uchun kuchli iroda va shu bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik motivlarining yuqori darajada rivojlanganligi zarur bo'ladi. Musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar sportchilarning motivatsiyasiga ta'sir etishi mumkin bo'lib, buning oldini olish uchun o'smir futbolchilarda murakkab vaziyatlarga bardoshlilikni ravojlantirish talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: «O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2021.
2. Xaitov A.U. O'smir futbolchilar o'yin jarayonidagi murakkab vaziyatlarda irodaviy sifatning ahamiyati. // O'zMU Xabarlar ilmiy jurnali. – Toshkent: 2024, №1/6. 220-223-b.
3. Xaitov A.U. O'smir futbolchilarni musobaqalarga irodaviy tayyorlash tizimida sportchi shaxsi psixologik barqarorligini ta'minlash. // O'zMU Xabarlar ilmiy jurnali. – Toshkent: 2024, №1/9/1. 207-210-b.
4. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта: учебное пособие. 4-е изд. – Москва: «Советский спорт», 2012.
5. Зинченко Ю.П., Тоневский А.Г. Психология спорта: Монография. – Москва: МГУ, 2011.
6. Ильин Е.П. Психология воли. – Санкт-Петербург: ООО «Питер Пресс», 2009.
7. Ильин Е.П. Психология спорта. – Санкт-Петербург: ООО «Питер Пресс», 2008.
8. Родионов В.А., Родионов А.В., Сивицкий В.Г. Спортивная психология: учебник для академического бакалавриата. – Москва: «Юрайт», 2018.